

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QITISHNING "4K" MODEL
TEXNALOGIYALARI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Ismoilova Shahlo Baxromovna
Alfraganus universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf darslarida 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning didaktik imkoniyatlari, hozirgi kundagi ta'lim jarayonini tashkil etishdagi asosiy yondashuvlari tahlil etilgan. 4K modelining o'rni, o'ziga xos xususiyatlari ko'rsatilgan va uni qo'llash masalalari haqida batafsil bayon qilingan. Zamonaviy tez o'zgaruvchan dunyoga, raqamli texnologiyalar zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylandi.

Kalit so'zlar: 4K modeli, boshlang'ich ta'lim, kompetensiyalar, tahlil, baholash, hamkorlik, ijodkorlik, zamonaviy texnologiyalar.

Kirish: Ta'lim sifatini oshirish bu ko'proq bilim to'plab, axborotga ega bo'lishgina emas, balki tafakkurni rivojlantirish, katta axborot oqimidan zarurlarini tezda tanlab olish, yo'nalishni aniqlash, vaziyatni baholash, nostandart muammolarni yechish ko'nikma va malakasini shakllantirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassis bugungi kunda raqobatbardosh ta'lim bozorida o'z o'rnini topishi uchun yangicha yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishi lozim. Ta'lim sifati, eng avvalo, ta'lim jarayonining asosiy bo'g'ini, uning ham ob'yekti, ham sub'yekti sifatida o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir. Aynan, 4K modeli bugungi kunda ta'lim sifatini oshirishda muhim katalizatorlik vazifasini bajaradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Ta'limda raqamli texnologiyaning yana bir muhim jihati hamkorlik va muloqotni kuchaytirish qobiliyatidir. Google Classroom, Microsoft Teams va Zoom kabi onlayn platformalar yordamida o'quvchilar jismoniy joylashuvidan qat'i nazar, loyihalar ustida hamkorlik qilishlari, hujjatlarni almashishlari hamda bir-birlari va o'qituvchilari bilan muloqot qilishlari mumkin. Bu o'quvchilarga hamkorlikda samarali ishlash, fikr almashish va bir-biridan o'rganish imkonini beradi. Onlayn ta'lim an'anaviy ta'lim resurslaridan foydalana olmaydigan, masalan, chekka yoki kam ta'minlangan hududlardagi o'quvchilar uchun imkoniyatlar ochdi. Onlayn kurslar va dasturlar, shuningdek, o'quvchilarga o'z tezligi va jadvali bo'yicha o'qish imkonini beradi, bu esa ish yoki oila kabi boshqa majburiyatlarga ega bo'lganlar uchun ta'limni yanada qulayroq qiladi. Ta'limda raqamli texnologiyaning ko'plab afzalliklariga qaramay, hal qilinishi kerak bo'lgan ba'zi muammolar ham mavjud. Raqamli tafovut eng katta muammolardan biridir. Barcha o'quvchilar kerakli raqamli qurilmalarga yoki ishonchli internet ulanishlariga ega emas, bu esa o'rganish imkoniyatlaridagi nomutanosiblikka olib kelishi mumkin. Shuning uchun barcha

o'quvchilar raqamli ta'limda to'liq ishtirok etish uchun zarur raqamli texnologiyadan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlash juda muhimdir.

Ta'lim sifatini oshirish bu ko'proq bilim to'plab, axborotga ega bo'lishgina emas, balki tafakkurni takomillashtirish, yuqori axborot oqimidan zarurlarini tezda tanlab olish, yo'nalishni aniqlash, vaziyatni baholash, nostandart masalalarni hal qilish ko'nikma va malakasini rivojlantirishdan iboratdir. Zamonaviy mutaxassis hozirgi vaqtda raqobatbardosh ta'lim bozorida o'z o'rnini topishi uchun yangicha yondashuv yordamida ta'lim jarayonini tashkil qilishi kerak. Ta'lim sifati, eng avvalo, ta'lim jarayonining asosiy bo'g'ini, uning ham ob'yekti, ham sub'yekti sifatida o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga bog'liqdir. Aynan, 4K modeli hozirgi kunda ta'lim sifatini oshirishda asosiy katalizatorlik vazifasini bajaradi. 4K tushunchasi odatda kognitiv, metakognitiv, ijtimoiy va hissiy sohalaridagi kompetensiyalarni ifodalashda foydalaniladi.

Boshlang'ich ta'lim jarayoni, o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun poydevor yaratadi. Mazkur bosqichda pedagogik yondashuvlar va metodlar asosiy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda ta'limda innovatsion yondashuvlardan biri sifatida pedagogik o'yinlar alohida e'tiborni tortadi. Ular, o'quvchilarni faollashtirish, qiziqishni oshirish va ko'nikmalarni shakllantirishdan samarali vosita sanaladi. Ayniqsa, 4K modeli — kritik fikrlash, hamkorlik, kommunikatsiya va ijodkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishda pedagogik o'yinlarning ahamiyati nihoyatda beqiyosdir. Pedagogik o'yinlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. O'yin mobaynida o'quvchilar bir-birlari bilan muloqot qilishadi, masalalarni birgalikda hal qilishadi va turli vaziyatlarga ijodiy yondashadilar. Bu jarayon nafaqat ularning qiziqishini oshiradi, balki ta'lim mohiyatini yanada boyitadi.

O'yinlar asosida o'quvchilar bir-birlariga yordam berishadi, birgalikda fikrlashadi va yangi g'oyalar ishlab chiqishadi. 4K modeli ta'lim jarayonida o'quvchilarning ko'nikmalarini takomillashtirish uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmalari, o'quvchilarga masalalarni tahlil etish va ularga alternativ yechimlarni taklif qilish imkoniyatini beradi. Pedagogik o'yinlar bu jarayonda o'quvchilarga real vaziyatlarni simulyatsiya qilish yordamida tahlil qilish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini oshiradi.

Natijalar: Kommunikativ ko'nikmalarni takomillashtirishda pedagogik o'yinlardan foydalanish yuqori samaradorlikka ega. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, fikr almashish va muammolarni muhokama qilish asosida kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar. O'yinlar yordamida o'quvchilar bir-birlariga tushunarli tarzda gapirishni o'rganadilar va fikrlarini aniq ifodalashga harakat qilishadi. Ijodkorlik ko'nikmalari esa o'quvchilarni innovativ fikrlarni ishlab chiqishga, yangi yechimlar topishga undaydi. O'yinlar jarayonida o'quvchilar o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyish qilib, yangi fikrlar va yechimlar ishlab chiqadilar.

Umuman olganda, pedagogik o'yinlar boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning 4K kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Ular nafaqat o'quvchilarning qiziqishini oshirib, ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, balki shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishlariga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar pedagogik o'yinlarni ta'lim jarayonida foydalanish orqali innovatsion usullarni joriy qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Natijada, o'quvchilar o'z ko'nikmalarini yanada samarali rivojlantiradilar, bu esa ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama: Pedagogik o'yinlar ta'lim jarayonini qiziqarli va interfaol shaklda tashkil qilib, o'quvchilarning o'zlashtirish faoliyatini yanada samarali va mazmunli qiladi. Mazkur o'yinlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtiradi, ularni bilimlarni o'zlashtirishga yanada chuqurroq jalb qiladi va darsni hissiy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. O'yinlar o'quvchilarga turli vaziyatlarni mustaqil tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va yechimlarni topish imkonini yaratadi. Muammoli vaziyatlar va masalalarni hal qilishga qaratilgan o'yinlar asosida o'quvchilarning tahliliy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. Masalan, muammoli vaziyatlar, mantiqiy jumboqlar yoki vaziyatli masalalar orqali o'quvchilar mantiqiy xulosalar chiqarishga va mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadilar.

Guruhli o'yinlar va hamkorlikda bajariladigan loyihalar orqali o'quvchilar birgalikda ishlash, guruh ichida rol va vazifalarni taqsimlash, muammolarni birgalikda hal qilish va umumiy maqsadga erishish malakalarini egallaydilar. Bu o'yinlar o'quvchilarda jamoaviy ish qobiliyatini rivojlantirib, ularga o'zaro hamkorlik sharoitida samarali faoliyat olib borishni o'rgatadi. Ijodiy o'yinlar va topshiriqlar o'quvchilarning yangi g'oyalarni kashf qilish, noan'anaviy yechimlar topish va turli san'at turlari orqali o'z fikrlarini ifodalash imkonini beradi. O'quvchilarga mustaqil ijodiy ishlarni bajarish, badiiy asarlarni tahlil qilish yoki yangi mahsulotlar yaratish orqali ularda ijodiy tafakkur va tasavvur kengayadi.

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, pedagogik o'yinlar o'quvchilarning faolligini oshirish, ularni qiziqtirish va darsni boyitishda kuchli didaktik vosita bo'lib ko'pgina imkoniyatlarni taqdim qiladi. Masalan, o'yin shaklida o'tilgan darslar bolalarda katta qiziqish uyg'otadi va ular bilimlarni qabul qilishga yanada tayyor bo'lishadi. Bu yordamida o'quvchilar mavzularni yodlashdan ko'ra, ulardan tushuncha va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtiradilar. O'yinlarda ishtirok etish asosida o'quvchilar o'z faoliyatlarini baholashni o'rganadilar. Bu esa ularga kelgusidagi darslarda o'zlarini takomillashtirishga yordam beradi. O'quvchilar yutuq va kamchiliklarini ko'rib, o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholashni o'rganadilar.

Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda 4K modeli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun pedagogik o'yinlardan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish, o'quvchilarni darsga jalb etish va ularning shaxsiy hamda ijtimoiy

ko'nikmalarini rivojlantirishda kuchli didaktik vosita hisoblanadi. Shu sababli, o'qituvchilar pedagogik o'yinlarning didaktik imkoniyatlarini yanada chuqurroq o'rganib, ularni ta'lim jarayoniga keng tatbiq etishlari zarur. Bu nafaqat o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga, balki ularning kelgusidagi ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli bo'lishiga ham zamin yaratadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. I. G. Almazova, E. V. Dolgosheyeva, S. N. Chislova. Boshlang'ich ta'limning zamonaviy texnologiyalari: o'quv qo'llanma. – Yelets: I.A. Bunin nomidagi Yelets davlat universiteti, 2019. – 86 bet.
2. Yavkochdiyeva Dilafruz Egamqulovna (2021). Innovatsion yondashuv ta'lim tizimini modernizatsiyalash omili sifatida. zamonaviy ta'lim (O'zbekiston), (4 (101)), 43-50.
3. Sanginova G.B. (2023). Yangi texnologiyalarning maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati. iqtisodiyot va jamiyat, (4-1 (107)), 840-846.
4. Toxirjon, U. (2024). Boshlang'ich sinflarda o'qishni yetkazib olishga qiynalayotgan o'quvchilar bilan ishlashda interfaol usullardan foydalanish. 21-asrda iqtisodiyot va ta'lim integratsiyasi, 2(2), 9-13.
5. Mirzaliyevna, S. Z., va Mashhura, X. (2023). Pedagogik texnologiyalarning vazifalari va maqsadi. qo'qon universiteti xabarnomasi, 687-689.